ZAMONAVIY MEDIAMATN TAHRIRIDA LINGVISTIK, PRAGMATIK VA VIZUAL YONDASHUVLAR

Nargiza Abdukaxarovna MIRZAYEVA
dotsent
filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy mediamatn tahririning nazariy va amaliy asoslari, uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda tahrir jarayoniga qo‘yiladigan asosiy talablar tahlil etilgan. Mediamatnning ko‘p kodli va multimediaviy tabiatidan kelib chiqib, uni tahrir qilishda lingvistik, kompozitsion, stilistik, pragmatik va vizual jihatlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash masalalariga e’tibor qaratilgan. Tahrir jarayonining tayyorgarlik, tahlil, tuzatish va yakuniy variantni shakllantirish bosqichlari tavsiflangan. Shuningdek, mediamatnda uchraydigan leksik, grammatik, kompozitsion, uslubiy, faktologik va semantik xatolar hamda ularni bartaraf etishning samarali usullari yoritilgan. Zamonaviy media muhitida muharrir faoliyatining kommunikativ, pragmatik va vizual strategiyalari tahlil qilinib, mediamatn sifatini ta’minlashda aniqlik, ishonchlilik, uslubiy yaxlitlik, estetiklik va ijtimoiy mas’uliyatning ahamiyati asoslangan.

Tayanch so‘zlar: mediamatn, tahrir, muharrir, media tili, mediaformat, kommunikativ mezon, stilistik mezon, pragmatik mezon, lingvistik tahrir, vizual tahrir, tahrir strategiyasi, multimediaviylik, faktologik xato, mediaetika.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ, ПРАГМАТИЧЕСКИЙ И ВИЗУАЛЬНЫЙ ПОДХОДЫ В РЕДАКТИРОВАНИИ СОВРЕМЕННОГО МЕДИАТЕКСТА

Наргиза Абдукахаровна МИРЗАЕВА
доцент
доктор философии по (PhD) филологическим наукам
Узбекский государственный университет журналистики и массовых коммуникаций
Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируются теоретические и практические основы редактирования современного медиатекста, его специфические особенности и основные требования, предъявляемые к процессу редактирования. Исходя из поликодовой и мультимедийной природы медиатекста, при его редактировании особое внимание уделяется вопросам обеспечения гармоничного сочетания лингвистических, композиционных, стилистических, прагматических и визуальных аспектов. Описаны основные этапы процесса редактирования: подготовка, анализ, правка и формирование окончательного варианта. Также освещены лексические, грамматические, композиционные, стилистические, фактологические и семантические ошибки, встречающиеся в медиатекстах, и эффективные методы их

устранения. Проанализированы коммуникативные, прагматические и визуальные стратегии деятельности редактора в современной медиасреде, обоснована важность точности, достоверности, стилистической целостности, эстетичности и социальной ответственности в обеспечении качества медиатекста.

Ключевые слова: медиатекст, редактирование, редактор, язык медиа, медиаформат, коммуникативный критерий, стилистический критерий, прагматический критерий, лингвистическое редактирование, визуальное редактирование, стратегия редактирования, мультимедийность, фактологическая ошибка, медиаэтика.

Mediamatn tushunchasi zamonaviy kommunikatsiya tizimida alohida o‘rin tutadi. U nafaqat yozma shakldagi matnni, balki audio, vizual hamda interaktiv formatlarni ham o‘z ichiga oladi. Mediamatn – bu ijtimoiy ahamiyatga ega ma’lumotni maqsadli auditoriyaga yetkazish, uni anglash va qayta talqin qilishga xizmat qiluvchi kompleks kommunikativ birlikdir [2;26]. U axborotning mazmuniy, estetik va pragmatik jihatlarini qamrab olgan holda, jurnalistik faoliyatning asosiy til va fikr ifodasi shakliga aylanadi.

Mediamatn tahriri masalasida D.M. Teshabayeva, G.X. Bakiyeva va M.Ch. Nuritdinov ta’kidlaganlaricha, *“muharrirning vazifasi faqat matnni grammatik va stilistik jihatdan to‘g‘rilash emas, balki uning semantik, kompozitsion va estetik yaxlitligini ta’minlashdan iborat. Muharrir matnning barcha elementlarini – so‘z, ibora, vizual va audio komponentlarni – bir butun kommunikativ tizim sifatida tahlil qiladi va har bir o‘zgarish auditoriya qabuliga qanday ta’sir qilishini oldindan baholaydi* [6;110]. Bu yondashuv muharrirlikni nafaqat texnik vazifa sifatida, balki *ijodiy, analitik va kommunikativ strategik faoliyat* sifatida ko‘rsatadi. Muharrir matnni platformaga moslashtiradi, auditoriya psixologiyasini hisobga oladi va mediamatnning ijtimoiy hamda estetik ta’sirini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, tahrir jarayoni zamonaviy media-makonning murakkab, ko‘pkanalli va interaktiv xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Nazariy jihatdan, mediamatn lingvistika, semiotika, sotsiologiya va kommunikatsiya fanlarining tutashgan nuqtasida shakllanadi. Chunki u faqat

so‘zlardan iborat emas – rasm, grafik, video, audio va harakat kabi tildan tashqari belgilarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois uni oddiy matn emas, balki ko‘p kodli axborot tizimi sifatida tahlil qilish zarur. Mediamatnning tarkibida so‘z bilan bir qatorda rang, tovush, ritm, harakat va vizual obrazlar ham axborot yukini tashiydi. Shuning uchun ham uni “ko‘pkanalli ifoda tizimi” deb atash mumkin.

Mediamatnning shakllanishi matbuot, radio, televideniye va internet jurnalistikasi taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq. Har bir media turi o‘ziga xos tahririy uslub va struktura bilan ajralib turadi [4; 42]. Masalan, matbuotdagi mediamatn yozma shaklda bo‘lib, dalil, izoh va tahlilga tayanadi; radio mediamatni esa tovush, intonatsiya va pauza orqali auditoriya bilan aloqa o‘rnatadi; televideniye matni obraz, sahnalashtirish va harakat vositasida ifodalanadi; internet jurnalistikasi esa ushbu unsurlarning barchasini birlashtirib, multimedial va interaktiv shakllarni yaratadi. Shu tariqa, mediamatn har bir platformaning kommunikativ xususiyatlariga moslashgan murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli davrda mediamatn turlari yanada kengaydi: multimedial, interaktiv va transmedia shakllar shakllandi [5;123]. Multimedial matn bir vaqtning o‘zida matn, rasm, audio va videoni uyg‘unlashtiradi, bu esa o‘quvchiga axborotni nafaqat o‘qish, balki ko‘rish va tinglash imkonini beradi. Interaktiv matn foydalanuvchining faol ishtirokini ta’minlaydi – havolalarni bosish, fikr bildirish yoki savollarga javob yozish orqali u matn yaratilish jarayonining bir bo‘lagiga aylanadi. Transmedia matn esa bitta hikoya yoki g‘oyani turli platformalarda – gazeta, blog, ijtimoiy tarmoq, video yoki podkastlar orqali bosqichma-bosqich rivojlantirib boradi. Shu yo‘sinda har bir media turi bitta mazmunning turli qirralarini ochib beradi va foydalanuvchiga kengroq kommunikativ tajriba taqdim etadi.

Bugungi kunda mediamatn oddiy axborot manbai emas, balki ijtimoiy interaksiya maydoni sifatida qaraladi. U o‘quvchini nafaqat xabardor qiladi, balki uni muloqotga chorlaydi, bahsga jalb etadi, hissiy ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun zamonaviy jurnalistik matn bir yo‘nalishli xabar emas, balki muallif va auditoriya

o‘rtasidagi ikki tomonlama kommunikatsiya shakli – faol va dinamik axborot almashinuvi tizimidir.

Tahrir – bu matnni mazmuniy, mantiqiy, lingvistik va uslubiy jihatdan takomillashtirish jarayonidir. U jurnalistik ijodning ajralmas bosqichi bo‘lib, maqsadi nafaqat til xatolarini tuzatish, balki axborotning aniqligi, ta’sirchanligi va o‘quvchiga yetkazilish darajasini oshirishdan iborat. Mediamatn tahriri muallif g‘oyasining to‘liq va aniq ifodasini ta’minlaydi, matnni auditoriya ehtiyojiga moslashtiradi hamda uni kommunikativ jihatdan samarali qiladi.

Tahrir jarayoni faqat grammatik yoki texnik xatolarni bartaraf etish emas, balki muallif nutqining mantiqiy tuzilishini, tildagi ifoda vositalarining aniqligini va uslubiy uyg‘unligini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, tahrir jurnalistikaning ijodiy va tahliliy jihatdan eng mas’ul bosqichlaridan biridir. Muharrir faqat matnni “to‘g‘rilovchi” emas, balki ma’naviy, madaniy va axloqiy mezonlarga tayangan holda o‘quvchi uchun ishonchli axborot shakllantiruvchi hamdir.

Zamonaviy kommunikatsiya sharoitida tahrirning maqsadi kengaydi – endi u nafaqat matn sifatini oshirish, balki uning mediaformatga, platformaga va maqsadli auditoriyaga mosligini ham nazorat qiladi. Masalan, gazeta uchun yozilgan tahrir prinsiplari bilan internet portallaridagi matn tahriri o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Birinchisida rasmiylik va struktura muhim bo‘lsa, raqamli medianing tahririda qisqalik, soddalik va vizual uyg‘unlik birlamchi o‘ringa chiqadi.

Mediamatn tahriri murakkab ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u quyidagi asosiy etaplardan iborat: tayyorgarlik, tahlil, tuzatish va yakuniy variantni tasdiqlash.

Tayyorgarlik bosqichi – bu muharrirning matnni birinchi o‘qishi, mavzuni tushunishi va uning kommunikativ maqsadini aniqlashi bosqichidir. Muharrir o‘quvchi nuqtai nazaridan matnga yondashadi: u kim uchun yozilgan, qanday kontekstdan o‘rin olgan va qanday maqsadni ko‘zlagan – shu savollarga javob topadi. Shuningdek, bu bosqichda matnning faktik aniqligi va manbalar ishonchliligi tekshiriladi.

Tahlil bosqichida matnning tuzilmasi, kompozitsiyasi, mantiqiy izchilligi va stilistik uyg‘unligi o‘rganiladi. Muharrir fikrlarning rivoji, o‘tish bog‘lanishlari, dalillar ketma-ketligi va tildagi mantiqiy uyg‘unlikni baholaydi. Shu jarayonda matnning semantik qatlamlari, konnotatsiyasi, baholovchanlik darajasi ham tahlil qilinadi.

Tuzatish bosqichi – bu amaliy tahrir jarayoni bo‘lib, unda matndagi kamchiliklar bartaraf etiladi. Grammatika, orfografiya, punktuatsiya, stilistika va leksik me’yorlar qayta ko‘rib chiqiladi. Muharrir bu jarayonda nafaqat xatolarni tuzatadi, balki matn ohangini, ritmini, ekspressivligini ham me’yorga keltiradi. Zarur hollarda muallif bilan maslahatlashgan holda ayrim jumlalar yoki bo‘limlar qayta yoziladi.

Yakuniy variant bosqichida esa matnning nashrga tayyor holati shakllantiriladi. Muharrir barcha o‘zgartirishlar kiritilgan variantni yana bir bor sinchiklab o‘qiydi, muallif nomidan auditoriyaga chiqadigan har bir so‘zning aniqligi va mosligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, matn media platformaning texnik talablari – hajm, format, sarlavha uslubi, havola joylashuvi va dizayn jihatidan ham moslashtiriladi [2].

Mediamatn tahririda zamonaviy yondashuvlardan yana biri – bu pragmatik markazlashuv tamoyili bo‘lib, u matnning faqat til qurilishini emas, balki uning real kommunikativ ta’sirini oldindan modellashtirishga asoslanadi. Pragmatik markazlashuv shuni talab qiladiki, muharrir matnni qayta ko‘rib chiqish jarayonida undagi har bir gapning auditoriyada qanday ijtimoiy, hissiy va axboriy reaksiyalarni yuzaga keltirishini prognoz qila olishi kerak. Chunki raqamli media maydonida axborotning qiymati nafaqat faktlarda, balki uning qo‘zg‘atadigan ijtimoiy rezonansida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli tahrir jarayonida matnning tonalligi, baholovchi birliklari, muallif nutqining modal xususiyatlari, tanlangan sarlavha va vizual unsurlar bir butun kommunikativ model sifatida baholanadi. Bu yondashuv natijasida mediamatn o‘quvchiga shunchaki ma’lumot yetkazmaydi, balki uni ma’lum pozitsiya, kayfiyat yoki ijtimoiy xulq-atvorga undovchi kuchli pragmatik struktura sifatida shakllanadi. Pragmatik markazlashuv muharrirdan

matnning tashqi shaklini emas, uning ijtimoiy funksiyasini ham nazorat qilishni talab qiladi.

Zamonaviy mediamatn tahririda alohida e’tibor talab qiladigan jihatlardan biri – bu matnning kognitiv yuklamasini boshqarish tamoyilidir. Chunki o‘quvchi raqamli axborot oqimi sharoitida matnni nafaqat mazmuniy, balki psixologik jihatdan ham tez qabul qiladi. Shuning uchun muharrir matnni qayta ishlash jarayonida undagi axborot zichligini, argumentlar ketma-ketligini, misollar va tasviriy vositalarning miqdorini auditoriya ongida ortiqcha yuklama hosil qilmaydigan tarzda muvofiqlashtirishi zarur. Kognitiv tahrir matnda asosiy g‘oyaning markaziy o‘rinni egallashini, ikkilamchi ma’lumotlarning esa ortiqcha tafsilotlar bilan yuklanmasligini ta’minlaydi. Natijada mediamatn nafaqat lingvistik jihatdan toza, balki kognitiv jihatdan ham o‘quvchi uchun qulay, tez o‘zlashtiriladigan va mantiqiy jihatdan izchil kommunikativ mahsulotga aylanadi. Shu orqali muharrir mediamatnning nafaqat informativ, balki intellektual qabulini ham optimallashtiradi.

Muharrir jurnalistik jarayonning intellektual markazidir. U muallif, nashr siyosati va auditoriya o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi. Muharrirning asosiy roli – jurnalistik axborot sifatini ta’minlash, matnni ijtimoiy ahamiyatga ega, ishonchli va professional darajada yetkazishdir. Muharrir o‘z faoliyatida bir vaqtning o‘zida tahlilchi, stilist, maslahatchi va etik nazoratchi rolini bajaradi. U nafaqat matn mazmuni, balki uning ta’sirchanligi, madaniy darajasi va ijtimoiy javobgarligi uchun ham mas’uldir. Shu sababli, muharrirlik kasbi chuqur bilim, tafakkur kengligi, til sezgirligi va yuksak axloqiy mas’uliyatni talab qiladi.

Raqamli jurnalistika sharoitida muharrirning roli yanada murakkablashgan. Endilikda u matn bilan bir qatorda multimedia elementlari – foto, video, grafik, gipermatnli havolalar va ijtimoiy tarmoq formatlarini ham nazorat qiladi. Shu bilan birga, muharrir mediaetika me’yorlariga qat’iy rioya qilishi, dezinformatsiya va plagiatga qarshi kurashishi lozim. Har bir tahrir qarori nafaqat matn sifati, balki nashrning obro‘si va jamoatchilik ishonchi uchun ham javobgar hisoblanadi.

Tahrir jarayonida mediamatn uch asosiy mezon – kommunikativlik, stilistik moslik va pragmatik samaradorlik asosida baholanadi [1; 801].

Kommunikativ mezon matnning o‘quvchiga ma’lumotni aniq, ravon va to‘liq yetkazish darajasini bildiradi. Unda fikrlarning izchilligi, lo‘ndalik hamda sarlavha va kirish qismi o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim o‘rin tutadi.

Stilistik mezon tildagi uyg‘unlik, so‘z tanlovi va uslub birligini anglatadi. Har bir janr uchun o‘ziga xos uslubiy norma mavjud: axborot janrida soddalik, analitikda mantiqiylik, badiiy-publitsistikda esa obrazlilik ustuvor hisoblanadi.

Pragmatik mezon esa matnning ijtimoiy ta’sir kuchi va auditoriyada uyg‘otadigan hissiy reaksiya bilan bog‘liq. Shu bois tahrir jarayoni nafaqat matnni yaxshilash, balki uning kommunikativ va ijtimoiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Publitsistik uslub mediamatnning ruhini belgilovchi asosiy unsurlardan biridir. U auditoriya bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni ta’minlab, voqeaga baho berish, ijtimoiy fikrni shakllantirish va o‘quvchini fikrlashga undash vazifasini bajaradi. Shu sababli, tahrirda publitsistik uslubning asosiy belgilarini – soddalik, ta’sirchanlik, emotsionallik va baholovchanlikni – muvozanatda saqlash muhim. Muharrir matnni haddan tashqari shioriy yoki hissiy tusga keltirib yubormasligi, muallif pozitsiyasining aniq, ammo subektivlikdan xoli bo‘lishini ta’minlashi kerak. Publitsistik ifoda dalillar bilan mustahkamlanganda, matnning ishonchlilik darajasi ortadi. Shu tarzda publitsistik uslubning ta’sirchanligi va axborot aniqligi uyg‘unlashadi.

Publitsistik matnning kuchi – uning hissiy va ekspressiv ta’sirida. Ammo bu jihatlar nazorat ostida bo‘lishi shart. Haddan ortiq hissiylik matnni subektivlashtiradi, ortiqcha rasmiylik esa uni quruq qiladi. Shuning uchun muharrir hissiy ta’sir bilan mantiqiy asos o‘rtasida muvozanatni saqlaydi. Emotsional ifodalar dalillar bilan mustahkamlanadi, ekspressiv vositalar esa (metafora, o‘xshatish, epitet) o‘rinli va me’yorda qo‘llanadi. Zamonaviy mediamatnda ta’sirchanlik nafaqat so‘z orqali, balki vizual vositalar – fotosurat, infografika va

dizayn uyg‘unligi orqali ham yaratiladi. Muharrir bu elementlarning tildagi ekspressiv vositalar bilan mosligini nazorat qilishi zarur.

Mediamatn tahririda axloqiy me’yorlarga amal qilish – jurnalistikaning ishonchliligi kafolatidir. Jurnalistik matn ijtimoiy ishonch vositasi bo‘lgani sababli, undagi har bir baho yoki mulohaza mas’uliyat bilan ifodalanadi. Tahrir jarayonida etik me’yorlarga rioya etish deganda, quyidagi tamoyillar nazarda tutiladi:

– inson sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish;

– millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni saqlash;

– jinsiy, siyosiy yoki ijtimoiy diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik;

– yolg‘on yoki tekshirilmagan ma’lumotni tarqatmaslik;

– senzatsiya yoki “clickbait” yo‘nalishida manipulyatsiya qilmaslik [8; 59].

Muharrir har doim “Bu axborot jamiyatga foydalimi?”, “Bu fikr kimnidir kamsitmayaptimi?” degan savollar asosida baho beradi. Ayniqsa, raqamli media sharoitida har bir so‘z soniyalar ichida keng ommaga yetib borishini unutmaslik lozim. Umuman olganda, mediamatn tahririda til va uslubiy tamoyillar bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Normativlik matnning madaniy asosini, aniqlik va lo‘ndalik mantiqiy kuchini, publitsistik uslub esa hissiy ruhini ta’minlaydi. Ijtimoiy-axloqiy me’yorlarga sodiqlik esa jurnalistik matnning ishonchlilik va ma’naviy qadriyatlarini mustahkamlaydi. Shu bois tahrir jarayoni mediamatnni texnik jihatdan mukammal, axborot jihatdan aniq va estetik jihatdan ta’sirchan holatga keltirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy mediamaydonning o‘zgaruvchan, raqobatbardosh va tezkor sharoitida mediamatn sifati tahrir jarayonining puxtaligiga bevosita bog‘liqdir. Mediamatn – bu nafaqat jurnalist mehnatining mahsuli, balki muharrirlik madaniyati, til kompetensiyasi va kasbiy mas’uliyatning ham ifodasidir [1; 815]. Muharrir matnga yakuniy shakl beruvchi, axborotning aniqligi, mantiqiyligi, uslubiy yaxlitligi va estetik ifodasini ta’minlovchi ijodiy nazorat tizimi sifatida ishlaydi. Shu bois tahrir jarayonida uchraydigan xatolarni aniqlash, ularni bartaraf etish va oldini olish mexanizmlari zamonaviy tahrir nazariyasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mediamatnda uchraydigan xatolar turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkin - leksik, grammatik, kompozitsion, faktologik, uslubiy yoki mantiqiy [7;140]. Ularning har biri axborotning ta’sir kuchini pasaytiradi, o‘quvchi e’tiborini susaytiradi, ishonchni yo‘qotadi va tahririyat obro‘siga putur yetkazadi. Shu sababli har bir professional muharrir matnni nafaqat tuzatish, balki uni to‘liq tahlil qilish, tildagi, mazmundagi va uslubdagi kamchiliklarni tizimli aniqlashga e’tibor qaratadi.

Leksik xatolar mediamatnda eng keng tarqalgan kamchiliklardan biridir. Ular so‘z tanlashdagi noto‘g‘rilik, sinonimik nomuvofiqlik, semantik noaniqlik yoki begona til elementlarining noo‘rin ishlatilishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, “islohot natijalari” o‘rniga “islohotlar oqibati” deb yozish mazmunni butunlay o‘zgartirib yuboradi; “soha eksperti” atamasi esa inglizcha *expert* so‘zining bevosita kalkasi bo‘lib, o‘zbek tilidagi “mutaxassis” so‘zidan ancha sun’iy ko‘rinadi. Shuningdek, “tendensiya” o‘rniga “yo‘nalish” yoki “jarayon”, “aktual masala” o‘rniga “dolzarb masala” deb yozish o‘zbek tilining tabiiyligiga mos bo‘ladi.

Grammatik xatolar esa tilning normativ me’yorlariga rioya qilinmaganda paydo bo‘ladi. Eng ko‘p uchraydigan holatlar – fe’l zamonlarining nomuvofiqligi, kelishiklarning buzilishi, bog‘lovchilarning ortiqcha ishlatilishi yoki sintaktik tartibning buzilishi. Masalan, “Jurnalistlar muhokama qildilar, bu muammo dolzarbdir” o‘rniga “Jurnalistlar bu dolzarb muammoni muhokama qildilar” degan shakl grammatik jihatdan aniqroq va stilistik jihatdan tabiiyroqdir.

Leksik va grammatik xatolarni bartaraf etishning eng samarali yo‘li - normativ tahrir bosqichida har bir jumlani tahlil qilishdir. Muharrir matnni o‘qish jarayonida har bir so‘zning o‘rnini, ohangini va semantik yukini baholaydi. Bu nafaqat texnik, balki ijodiy jarayondir - chunki to‘g‘ri tanlangan so‘z o‘quvchi hissiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mediamatnda kompozitsion yaxlitlik – bu matn qismlarining mantiqiy bog‘liqligi, fikr oqimining izchilligi, g‘oyaning bosqichma-bosqich rivojlanishidir. Amaliy tahrirda uchraydigan asosiy kompozitsion xatolar: mavzuga kirishning sustligi, asosiy g‘oyaning nomuvofiq joylashuvi, xulosa qismining yo‘qligi yoki

umumlashtiruvchi fikrning zaifligidir. Masalan, intervyuda respondentning eng muhim javoblari matn o‘rtasida yashirin qolsa, o‘quvchi diqqatini yo‘qotadi.

Uslubiy kamchiliklar esa matnning ohangi va ifoda uslubiga tegishli. Publitsistik matnda ortiqcha patetika yoki sun’iy hissiyot, haddan tashqari rasmiy ohang, shuningdek, aralash uslublarning uyg‘unlashmagan qo‘llanilishi o‘quvchi bilan aloqa samaradorligini pasaytiradi. Masalan, bir matnda “ilmiy” va “og‘zaki” uslublar aralash qo‘llanilsa (“tizimda sezilarli progress kuzatilmoqda, bu juda zo‘r natija”), jurnalistik professional ohang buziladi.

Shu bois muharrir stilistik tahrirda soddalik, aniq ifoda, ohang birligi va sintaktik muvozanatni saqlaydi. Ayniqsa, sarlavha va kirish qismi butun materialning semantik va uslubiy markazidir. Sarlavha qisqa, ta’sirchan, aniq fikrni ifodalovchi, lekin emotsional jihatdan jozibali bo‘lishi kerak. Masalan, “Ta’limda raqamli burilish” kabi sarlavha “Ta’lim tizimida raqamli islohotlarning natijalari to‘g‘risida” degan uzun variantga nisbatan o‘quvchi e’tiborini tezroq tortadi.

Ma’no buzilishi mediamatnda ikki shaklda namoyon bo‘ladi:

1. Semantik nomuvofiqlik – so‘z yoki iboraning mazmun jihatdan noto‘g‘ri ishlatilishi (masalan, “o‘sish kamaydi” kabi zid iboralar).

2. Faktologik noaniqlik – voqealar, raqamlar yoki ismlar haqidagi ma’lumotlarning noto‘g‘ri berilishi [4;26].

Masalan, “Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar natijasida o‘qituvchilar soni oshdi” degan jumla aniq statistik dalilga tayanmasa, o‘quvchini chalg‘itadi. Xuddi shunday, “Toshkentda bo‘lib o‘tgan sammit 2022-yil mart oyida o‘tkazildi” degan fakt xato bo‘lsa, nashrning ishonchliligi jiddiy zarar ko‘radi.

Faktologik xatoliklarni bartaraf etish uchun muharrir faktologik tahrir bosqichida har bir ism, joy, sana va raqamni manbalar bilan solishtiradi. Muharrirning asosiy tamoyili – “bir ma’lumot kamida ikki manba bilan tekshiriladi”.

Ma’no buzilishini oldini olish uchun esa mantiqiy tahlil usuli qo‘llaniladi: har bir gapning asosiy g‘oyaga xizmat qilish darajasi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va

o‘quvchiga ta’siri baholanadi. Muharrir o‘quvchi nigohi bilan matnga qaraydi – bu usul semantik uzilishlarni tez aniqlash imkonini beradi.

Mediamatn tahriri faqat xatolarni topish emas, balki ularni tizimli tarzda bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqish jarayonidir. Zamonaviy muharrir bu jarayonda uchta asosiy yo‘nalishga tayanadi: lingvistik, pragmatik va vizual strategiyalar.

Lingvistik strategiya – matnning grammatik, orfografik va leksik me’yorlarga mosligini ta’minlashga qaratilgan. Muharrir fonetik uyg‘unlikni, gaplarning ohangini va tildagi tabiiylikni saqlaydi.

Pragmatik strategiya – matnning o‘quvchiga ta’sirini kuchaytirish, uning hissiy, intellektual va estetik qabulini optimallashtirishga qaratiladi. Masalan, ritorik savollar, parallel qurilishlar, metaforik ifodalar yoki ijobiy baho beruvchi so‘zlar matnning ta’sirchanligini oshiradi.

Vizual strategiya – raqamli jurnalistikada muhim omil bo‘lib, matnning dizayn, infografika va multimedia elementlari bilan uyg‘unligini ta’minlaydi. Surat, video yoki infografika matnning mazmuniy markazini qo‘llab-quvvatlashi kerak, aks holda o‘quvchi chalg‘iydi [3; 79].

Bu strategiyalar birgalikda qo‘llanganda haqiqiy muharrirlik san’ati yuzaga chiqadi. Chunki tahrirning vazifasi faqat grammatik to‘g‘rilikni emas, balki matnning umumiy ruhini, kommunikativ maqsadini va estetik ta’sirini mukammal shakllantirishdir.

Demak, mediamatn tahriri jurnalistikaning eng mas’uliyatli, ijodiy va nozik bosqichidir. Unda matnning grammatik to‘g‘riligi, g‘oyaviy aniqligi, estetik ifodasi va kommunikativ kuchi uyg‘unlashadi. Leksik, grammatik, uslubiy, faktologik yoki ma’noviy xatolar o‘z vaqtida tuzatilmasa, nafaqat axborot sifati, balki jamoatchilik ishonchi ham yo‘qoladi. Zamonaviy muharrirlik madaniyati tahrirni oddiy texnik tuzatish sifatida emas, balki ijodiy, analitik va axloqiy mas’uliyatli faoliyat sifatida talqin etadi. Raqamli axborot makonida tahrir yanada murakkablashmoqda: matnlar tez yangilanadi, auditoriya talabchan, vizual va til uyg‘unligi esa birlamchi omilga aylanmoqda. Shunday qilib, mediamatn tahriri

nazariyasining dolzarbligi – unda inson omili, til madaniyati va texnologik imkoniyatlarning uyg‘unlashuvida namoyon bo‘ladi. Har bir professional muharrir aniqlik, ishonchlilik, estetiklik va javobgarlik tamoyillariga amal qilgan holda ishlasa, milliy matbuot sifati oshadi, jurnalistikaning ijtimoiy nufuzi esa mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akhrenova, N. A., & Zaripov, R. I. (2023). Linguopragmatic Scopes of Modern Media Texts. RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics, 14(3), 801–817. DOI: 10.22363/2313-2299-2023-14-3-801-817

2. Boyboboyev H.A. Matn tahriri jarayoni – tadqiqot obyekti. //Central Asian Journal of Academic Research, Vol. 3, Issue 8, 2025. DOI: 10.5281/zenodo.17008212

3. Fedorov, A. (2019). Digital Journalism and Multimedia Strategies. Moscow: Media Press.

4. Jabborova, S. M., Axmedov, A. T., & Mo‘sidinova, S. Z. (2024). *Ommaviy axborot vositalarini tahlil qilish madaniyati va uni baholash*. International Scientific Research Conference, Vol. 3 No. 29. https://uzjournals.edu.uz

5. Jenkins, H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. - New York: NYU Press, 2006.

6. Муаллифлар жамоаси. Журналистика. Медиалингвистика ва таҳрир. - Тошкент, 2019.

7. Тўхлиева Н. Таҳрир маҳорати: журналистика факультети бакалаврлари учун “Таҳрир маҳорати” фанидан машқлар тўплами. – Тошкент: Bayoz, 2013.

8. Халилова Ш.Т. Ўқувчиларни ахлоқий-эстетик тарбиялашда оммавий ахборот воситаларидан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари (Ўзбекистон радиоси эшиттиришлари мисолида): педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2001.